

Surayyo HAKIMOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

TIMSOL VA UNING MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI AHAMIYATI

Har bir xalqning integratsiya jarayonida umume'tirof etilgan yoki qabul qilinmagan o'ziga xos madaniy xususiyatlari mavjud. Ushbu madaniy tafovutlar ma'lum bir jamoaning madaniyati, san'ati, marosimlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, idish-tovoqlari, kiyim-kechaklari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari kabi keng ko'lamli hodisalarda mujassamlangan. Ramz – xalqning urf-odatlarini, e'tiqodlarini, hatto ba'zi yozilmagan hayot me'yorlariga asoslangan qarash, ramziy dunyo tasvirini ifodalovchi madaniy kod. Shu sababli bu ramziy qarash muloqotchilar o'rtasida tushunmovchiliklarga olib keladi.

Ashurova D.U., Galiyeva M.R., Lich E., Sitaram K.S., Kogdell R.T. kabi olimlar tomonidan ramzlarning tasniflanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. E.Lich ta'kidlaganidek, "Insonlarning oddiy nutq va yozma so'zlardan foydalangan holda bir-birlariga ma'lumot yetkazish usuli bir-biridan farq qiladi va og'zaki nutqdagi xatti-harakatlar orqali muloqot kodlanishi mumkin [1: 14]. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, muloqot – tilni o'z ichiga olgan og'zaki va og'zaki bo'lmagan elementlar, ya'ni muayyan madaniyatning ijtimoiy maqomi, diniy, madaniy, psixologik, siyosiy va huquqiy asoslariga ta'alluqli qarashlar, tasvirlar, hodisalar to'plami, umuman olganda, belgilar va ramzlardan iboratdir. K.Sitaram va R.Kordell ta'kidlashicha, ramz ma'lum bir madaniyat a'zolari tomonidan muloqot maqsadida foydalaniladigan lingvistik va nolingvistik vositalar bo'lib, to'rtta asosiy manba orqali o'rganiladi:

- 1) shaxslararo muloqot, o'z jamiyati a'zolarini kuza-tish;
- 2) ommaviy axborot vositalari;
- 3) o'ziga xos dunyoqarashni shakllantirish;
- 4) boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabat [2: 131].

Bundan xulosa qilishimiz kerakki, simvol bu – oldindan shakllangan tushuncha emas, balki u shakl va ma'no o'rtasidagi madaniy munosabat yordamida yaratiladigan madaniy asosdir. Shuning uchun tadqiqotchilar ramzlarning madaniy kelib chiqishi, shakl-shamoyilidagi o'xshashlik va ma'nolar o'rtasidagi keskin farqni ko'rib chiqishlari dolzarbligini talab qilmoqda. Masalan, Germaniya kabi ba'zi G'arb madaniyatlarida qora rang kuch-qudrat timsoli bo'lsa, ba'zi Sharq madaniyatlarida bu rang yovuzlik, qayg'uni tasvirlaydi.

Odamlar kundalik hayotda ramzlarni uchratishadi va ulardan foydalanishadi, chunki ular narsalar, figuralar, ranglar, rasmlar, tovushlar, hatto so'zlar va yuz ifodalari kabi turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi, lekin bularning barchasi qabul qiluvchiga mavhum g'oya yoki tushunchani ko'rsatadi. Shu sababli ramzlar olimlar tomonidan turlicha tasniflanadi. D.Bordon tasnifiga ko'ra, ramzlar ma'lum ma'noda quyidagilarga bo'linadi:

- tasviriy simvollar – umumlashtirilgan shaklni ko'rsatadigan haqiqiy dunyoga qo'llaniladigan tasvirlar, piktogrammalardan iborat;

- funksional simvollar – elementlarning funksiyasiga asoslangan aniq bir faoliyatni ifodalaydi. Masalan: cho-dir – lagerni yoki ot – poygani ifodalaydi;

- konseptual simvollar – bevosita ifodalangan xususiyat tushunchani namoyish etadi: "Dovud yulduzi" – yahudiy ibodatxonasi ramzi;

- ogohlantiruvchi belgilar – xaritani o'qiydiganlar yoki yo'lovchilar uchun juda samarali bo'lib, ularning manzilini osongina topish yoki yo'lda konvensiyalarni farqlash imkonini beradi: qizil chiziq – magistral yoki taqiqni, xoch – kasalxonani ifodalaydi;

- abstrakt yoki geometrik belgilar muayyan xususiyatni ifodalovchi ixtiyoriy shakllardir [3].

Bundan tashqari, simvollar umuminsoniy, milliy, individual shaklda ham tasniflanishi mumkin. Umuminsoniy ramzlar barcha xalqlar uchun tushunarli bo'lgan, muloqot jarayonida qiyinchiliksiz qabul qilinadigan ishoralar bo'lib, xalqaro tashkilotlarning belgilari, yo'l belgilari, raqamlar bunga misol bo'la oladi. Milliy simvollar o'zlarining yaratuvchisi bo'lgan ma'lum bir xalqqa tegishli hisoblanadi. Masalan, atlas, so'zana – o'zbek millatining ramzi; til har bir madaniyatning milliy ramzi, imo-ishora tili, milliy bayroqlar, gerblar, valyuta va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, milliy ramzlar – ma'lum bir madaniyatning moddiy va nomoddiy elementlari hisoblanadi. Shuningdek, individual, ya'ni bir shaxsga tegishli bo'lgan simvollar yaratuvchisi ma'lum bir shaxs yoki ijtimoiy qatlam, asosan, yozuvchilar, ijod ahli sanaladi. Masalan, E.Xeminguey o'z asarida "yomg'ir" so'zini quyidagicha ta'riflab, u baxtsizlik, yolg'izlik va azob-uqubatlar ramzini ifodalashini ta'kidlaydi [4: 57].

Shunday qilib, ramzlar "til – inson – madaniyat" aloqadorligida murakkab munosabatlarni ochib beruvchi madaniy, milliy va individual dunyo manzarasining ifo-

dasidir. Tilshunos olimlar tomonidan ramzlar, belgilar, piktogrammalar, indekslar, soʻz-ramzlar bir-biridan qisman farqlanishi taʼkidlangan va quyidagicha taʼriflangan: belgi – ancha keng va umumiy tushuncha boʻlib, soʻzlar, raqamlar, tovushlar, rasmlar, yoʻl belgilari va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Indekslar – belgining bir qismi boʻlib, asosiy semiotik atamalar boʻlgan belgi va belgi oʻrtasidagi bogʻlanishni ifodalaydi. Ikoniya – rasm va fotosuratlar kabi jismoniy oʻxshashlikdagi belgilarga qoʻllaniladigan narsa. Misol uchun, tutun – olov tasviri, suv – hayot, borliq ifodasi. Ayrim ramzlar tashqi koʻrinishida hech qanday aloqasi boʻlmagan narsalar boʻlib, ular madaniy vaziyatga qarab oʻrganiladi. Masalan, donolik timsoli – dunyoning ikki tomonini bir-biriga qarama-qarshi ifodalagan xitoylik qadimgi faylasufga tegishli, lekin ular bir-birisiz mustaqil ravishda mavjud emas.

Kontseptual maydon bir xil tushuncha ostidagi soʻz va soʻzlar birikmasidir. Soʻzlar faqat boshqa soʻzlar bilan oʻzaro bogʻlanganda oʻziga xos semantik maʼnoni anglatadi [5]. Shuningdek, bu tilshunos olimlar soʻzning oʻz (denotativ) va koʻchma (konotativ) maʼnosi haqida ham fikr yuritib, simvol ham oʻz va koʻchma maʼnosi borligini taʼkidlaydilar. Aniqroq qilib tushuntiradigan boʻlsak, simvolning lugʻatdagi maʼnosi va unga asos-

langan koʻchma maʼnosi emotsional jihatdan boʻyoqdor boʻladi. Bizga maʼlumki, ramzlar maʼlum bir konseptual sohada keng qamrovli majoziy maʼnolarga ega hisoblanadi. Masalan, bitta ramz turli xil jabhada har xil maʼnoni anglatadi. Jumladan, sanʼat sohasida ranglar quyidagicha ramziy maʼno kasb etadi:

- qora rang – oʻlim yoki yovuzlik;
- oq rang – hayot va poklik;
- qizil – qon, ehtiros, xavf-xatar;
- sariq – zoʻravonlik yoki horgʻinlik;
- moviy rang – xotirjamlik, osoyishtalik ramzi.

Xullas, timsol, yaʼni ramz har xil madaniyatda turli xil maʼnoga ega boʻlgani uchun ular oʻrtasida oʻxshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, ularni pragmatik nuqtayi nazardan tasniflash maqsadga muvofiqdir. Turli madaniyatlarning ramziy tillarini taqqoslab, biz ramzlar orqali samarali madaniyatlararo muloqotga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolga javob berishimiz mumkin. Umuman olganda, ramzlarni lingvistik va madaniy jihatdan oʻrganish shaxsiy va kasbiy rivojlantirishga yordam beradigan, shuningdek, madaniyatlara muloqot kompetensiyasini chuqurlashtiradigan asosiy universal va lingvo-madaniy birlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lich E. Culture and communication: the logic symbols relationship. – Moscow, 2001.
2. Sitaram K.S., Cogdell R.T. Foundations of intercultural communication. – Columbus, 1976.
3. Borden D. Cartography: thematic map design. – Nyu-York: McGraw Hill-Higher Education, 1999.
4. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics. – Tashkent: Oʻzkitobsavdonashriyot, 2019.
5. Bin Xu., Chunming G. Theory and practice in language studies, 2013, Vol.3, No.11, doi:10.4304/tpls.3.11.2030-2035.

Shahlo MUSAYEVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

“OʻZBEK TILINING IZOHLI LUGʻATI” MISOLLARIGA MANBA BOʻLGAN BADIY ASARLAR

(Nosir Fozilov ijodi asosida)

Jamiyat oʻzgarishi bilan bogʻliq tarzda tilning lugʻat tarkibida turli jarayonlar yuzaga keladi: soʻz va soʻz shakllari paydo boʻladi, faollashadi va asta-sekin muomaladan chiqib ketadi. Ularni saralab olish va adabiy tilda muhim oʻringa ega boʻlishida lugʻatlar va lugʻatshunoslikning oʻrni beqiyos.

XIX asrning 60-yillarida E.Littre fransuz tilining katta lugʻatini chop ettirganda mashhur adib E.Zolya lugʻatni “Fransuz sivilizatsiyasi tarixiga qoʻshilgan hissa”, deya baholagan edi [1: 8]. Zero, lugʻatlar millatning ilm va tafakkur taraqqiyotini koʻrsatib beruvchi bir vosita boʻlib, toʻplangan bilimlarni jamlash, tartibga solish, biror xalqni oʻrganish va umumiy baho berish kabi qoʻshimcha vazifalarni ham bajaradi.

Butun bir tilning soʻz boyligini bilish uchun koʻplab ishlar qilinadi: lugʻatlar shakllantiriladi va oʻrganiladi. Umuman, inson boshqa bir tilni oʻzlashtirmoqchi boʻlsa, albatta, lugʻatga murojaat qiladi yoki biror yozuvchining umri davomida nechta soʻz ishlatganini bilish uchun ham uning soʻzlarini lugʻat tartibida joylashtiradi. Demak, tilshunoslik uchun asosiy manbalardan biri bu – lugʻat. Lugʻatlar turli xil boʻladi. Tilshunos olim professor Baxtiyor Mengliyev boshchiligidagi chiqqan “Oʻzbek tilining universal qoʻllanmasi” kitobida avval lugʻatlar ikkiga: umumiy va maxsus lugʻatlarga, bu ikki tur ham, oʻz navbatida, qomusiy va filologik lugʻatlarga boʻlib tasniflangan.